



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCES.UZ

28 FEVRAL
№25

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
2-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-2**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-2**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 24 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

1. G'ovsidinov Ma'ruf Nasridinovich ALISHER NAVOIY VA ABDURAHMON JOMIYNING TASAVVUFGA OID QARASHLARI (Y.E.BERTELS TALQINIDA).....	7
2. Ҳошимова Г.И., Низомий, Масофавий таълим МАЊАВИЙ МАДАНИЯТ - ИЖТИМОИЙ РИВОЖЛАНИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ	10
3. Ҳошимова Г.И., Низомий, Масофавий таълим ҲАРБИЙ МАДАНИЯТ ВА ҲАРБИЙ ЭТОСНИНГ ИЛМИЙ - НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ.....	12
4. Қодиров Давронбек Ҳошимович АБУ ҲОМИД ФАЗЗОЛИЙ МАҶРИФИЙ ИН҆ҚИРОЗИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАФАККУРИГА ТАЪСИРИ.....	14
5. Javohir Nimatov Olim o‘g‘li “MEN DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM TAHDIDINI QANDAY TUSHUNAMAN”	16
6. Алиев Нурислом Абдимуротович “JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT”	19
7. Нурмуҳаммад Қаршиев СИЁСИЙ – ПАРТИЯВИЙ ТИЗИMLАР ТРАНСФОРМАЦИЯСИ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	21



ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҶАРАШЛАР

ALISHER NAVOIY VA ABDURAHMON JOMIYNING TASAVVUFGA OID
QARASHLARI (Y.E.BERTELS TALQINIDA).

G'ovsidinov Ma'ruf Nasridinovich
SamDCHTI "Ijtimoiy fanlar va axborot
texnologiyalari kafedrasи o'qituvchisi
99898 273 18 81

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikki qardosh xalqning buyuk siymolari A.Jomiy va A.Navoiyning tasavvufga oid qarashlari taniqli sharqshunos olim Y.E.Bertelsning tadqiqotlari asosida ochib berilgan. Shu bilan birga ularning tariqatdagi faoliyatlarining asosiy mazmun mohiyati, tasavvufga oid falsafiy qarashlari, ustoz-shogirdlik va do'stlik, adabiy hamkorlik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, falsafa, naqshbandiylik, tariqat, adabiy hamkorlik, shayx, murid, pir.

Ushbu muqaddas zamin jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Imom Buxoriy, Imom Motrudiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Xo'ja Axror Vali, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abulays Samarcandiy, Davlatshoh Samarcandiy singari ko'plab avliyo, shoir va olimlar uchun mukammallik beshigi bo'lib xizmat qilganidan faxrlanamiz[1,178].

Navoiy va Jomiying ilmiy ijodi taniqli sharqshunos olim Y.E.Bertels tomonidan salmoqlari o'r ganilgan. Y.E.Bertels Navoiy va Jomiy hayoti va ijodiga oid monografiya va ko'plab maqolalar e'lon qilgan. Jumladan, uning tanlangan asarlarining to'rtinchchi jildi "Навои и Джами"ning ahamiyati salmoqlidir. Shu nuqtai nazardan uning Navoiy, Jomiy va ularning zamondoshlari ijodiga bag'ishlangan monografiyalari, maqolalari va sharhlari muhim ahamiyatga ega. Ularda Y.E.Bertels, bu ikki buyukning hayoti va ijodini o'r ganib chiqadi, tojik va o'zbek xalqlarining ma'naviy madaniyati vakillari orqali XV asr O'rta Osiyo adabiy hayotining keng rasmini beradi. Mark Toutantning ta'biri bilan aytganda, "Yevgeniy Bertels Jomiy va Navoiyning adabiy va madaniy maslakdosh sifatida tadqiq qilinishiga yo'l ochib bergen [2,].

Har bir muallifning ijodini o'r ganishda Y.E.Bertels mavzuning mohiyatiga asosiy e'tibor qaratish kerak deb hisoblaydi. Ijodda muhim rol o'ynaydigan madaniy va ma'naviy shartlar har qanday iste'dodli va o'ziga xos shoirning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Y.E.Bertels Jomiy va Navoiy ijodida ikki qardoshlik madaniyatining yuqori cho'qqisini namoyish etdi. Y.E. Bertels fors ijodkorligini qiyosiy o'r ganishda turkiyzabon mualliflar ijodini faqat taqqoslash bilan cheklanib qolmay, samarali sujet chiziqlari, she'riy obrazlar, metafora, uslublar bilan tadqiq etgan. Biz buni Y.E.Bertelsning Navoiy va Jomiyga bag'ishlangan barcha asarlarida kuzatishimiz mumkin [3,7,].

Y.E.Bertels Navoiyning tariqatga kirib kelishini Jomiying ta'siri ostida kechganligini ta'kidlaydi. "Tanishish tez orada chuqur sadoqatga aylanadi va 1476 (77) yilda Navoiy Jomiyga murid tushib, uning rahnamoligida naqshbandiya tariqatiga kiradi. Bu o'sha davr udumlariga ko'ra, Navoiy o'z inon-ixtiyorini pir qo'liga topshirdi va qolgan umrini uning inon-ixtiyori asosida qurish majburiyatini o'z zimmasiga oldi degani edi"[4,178].

Bunday holatni biz tariqatga o'ta qattiq amal qilish kerak degan ma'noni anglashimiz noto'g'ri, balki Navoiyning Jomiy bilan har qanday mushohada va fikrlarda hamjihat ekanligidan dalolat beradi. Jomiying tariqatdagi faoliyatini, uning hayotdan uzilishi yoki uzlatga kirishi tarzida kechmaganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga Jomiying naqshbandiylik qarashlarini ijtimoiy va moddiy hayot tarzidan voz kechishni talab qilmasligini ta'kidlaymiz.

Alisher Navoiy piri Abdurahmon Jomiying fazilatlarini ta'riflaganda "Koshifi sirri Illoh" ("Illohiyat sirlarini kashf etuvchi"), "Murshidi ahli tahvid" ("vahdat-yagonalik tarafdarlarining



rahnomasi”), “Piri soliqon” (“Tariqat yo’lovchilarining piri”), “Hodii rohi fano (fa’no yo’lining rahnomasi)” kabi sifatlarni keltirib o’tadi. Ya’ni “Jomiy oddiy so’fiy emas,u pir, rahnamo, odamlarni ma’rifat sari boshlash qudratiga ega, ma’rifatning chashmasidan bahramand bo’lib, shu chashma ko’zini ochganlardan”[5,117].

Jomiy o’zining boshqa asarlari va maktubotida bergen Navoiy obraziga oid qayd chizgilarni “Bahoriston”ga nisbatan umumlashtiradi, uni badiiy tavsif holiga keltiradi. Navoyining shoirligi yoki vazirligi,adolatpeshaligi, Hirot adabiy maktabining sardorligi hamda homysi haqidagi ustoz qaydlari keyingi asrlarda u haqda qator asarlarning yuzaga kelishiga turtki va asos bo’lib xizmat qiladi. Jomiyning Navoiy haqidagi qaydlari faqat zikr etilganlar bilan cheklanib qolmaydi. Jumladan, biz Navoiy va tasavvuf munosabati masalasiga to’xtaladigan bo’lsak ham Jomiy asarlarini varaqlashga majbur bo’lamiz. Jomiy bu haqda to’xtalib o’zining “Nafohat ul-uns” asarida Navoiyni “darveshlar do’sti” faqirlik yo’lida botir daraja va e’tiborning a’lo martabasidan yuz o’girgan faqirlik va foniylilikni qabul qilgan inson sifatida tarif-u talqin qiladi. Jomiyning bu qaydlari Navoiy shaxsining bizga noma’lum qirralarini yoritish bilan birga uning she’riyatini ham teranroq mukammalroq tushunishda uning ijodidagi yetakchi yo’nalishlarni ilg’ab olishda asosiy manba hisoblanadi. Bu badiiy qaydlarni har ikki shoir munosabatidagi tarixiylik nuqtai nazardan olib qaraganda yana ham qimmati oshadi, o’ziga xosligi teranlashadi.

Navoiydek siyosat arbobining tariqatga kirishi, Jomiy oldiga tariqatni nazariy jihatdan qayta ko’rib chiqish va rivojlantirish vazifasini ko’ndalang qo’yadi. Baholanki, Jomiy tariqatning ijtimoiy-falsafiy tomonlariga e’tibor qaratadi, shu bilan birga vahdat ul-vujudning amaliy nazariylarini tariqatiga singdirish, Ibn-al Arabiy va Naqshband ta’limotlarining qorishmalaridan yangi falsafiy qarashlar umumiyligini ishlab chiqishga e’tibor beradi. Vahdat ul-vujud dunyoqarashi avvaldan Naqshbandiylik tariqatining nazariy asosi bo’lganida edi, bu Jomiy tomonidan qayta ishlab chiqilishiga hojat yo’q edi. Shu boisdan bu muommo Y.E.Bertelsning ta’kidlashicha, Naqshbandiylik tariqati Boyazid Bistomiyning mastlikka asoslangan vajdiyga o’xshash, ta’limotiga umuman aloqasi yo’q, chunki u islom dini doirasida paydo bo’lgan.

Alisher Navoiyga tasavvuf adabiyoti sohasida ustozlik maqomini shubhaisiz Jomiy o’z qo’liga olgan deb aytishimiz mumkin. Navoiy tasavvuf falsafasini asosini o’rganishga kirishgach, Ibn al-Arabiyning pantiestik ta’limotining asoslarini oolib beruvchi Faxriddin Iroqiyning “Lamoat” falsafiy asari bilan tanishadi. Asar Ibn al-Arabiyning shogirdi Sadriddin al-Arabiyning “Fusus al-hikam” ma’ruzalaridan ta’sirlangan holda Iroqiy tomonidan yozilgan. Jomiy falsafiy qarashlarida Ibn al-Arabiyning ta’siri sezilarli ekanligini hisobga olsak, demak Jomiy Navoiyga mazkur asarni mutolaa qilishda ko’maklashishi tabiiy holdir.

Jomiyning Ibn al-Arabiya bo’lgan qiziqishi Hirotda o’qib yurgan kezlarida yaxshi ma’lum bo’lgan. U vah’dat ul-vujud tarafdoi bo’lgan. Bu atama mahalliy til mohiyatidan kelib chiqqan. U buni pejorativ tarzda ishlatganlarning munosabatini tanqid qiladi. Biroq, yana bir jihat bor edi, Jomiy boshqa vojidlargacha nisbatan dushmanlikni kuchaytirgan bo’lishi mumkin.”U doimo haqiqatning go’zalligini uning metafora ko’rinishida guvohi bo’lgan va qat’iyat bilan tashqi, metafora muhabbat yo’lini bosib o’tadi, bu borliq haqiqatga olib boruvchi ko’prikdir [6,690-691].

Ammo Jomiy hayoti davomida ushbu ko’prikni tez-tez takrorlab, uni kesib to’xtovsiz oldinga o’tishda davom etdi. Jomiyning tariqatga kirishi uni yaqinlaridan yiroqlashtirmadi. U o’zining asosiy vaqtini asarlar ustida ishlash va shogirdlari bilan muloqot qilish bilan o’tkazardi. Navoiy Jomiyning haqiqiy botinidan bexabar bo’lgan ayrim yuzaki kuzatuvlarini tasdiqlaydi, lekin shu bilan birga uni «metaforik muhabbat» butunlay yutib yuborgan deb hisoblaydi va buning uchun uni ayblaydi.

Ashi’at al-Lama’at» - taniqli shoir Faxraddin Ibrohim Iroqiy Hamadoniyning «Lama’at» kitobiga sharh sifatida yozilgan. Bertelsning aytishicha, Faxraddin Ibrohim Iroqiy Hamadoniy asli Iroqlik bo’lib, tasavvufni Hindistonda o’rgangan. Ammo umrining oxirlarida Koniyaga boradi va Ibn al-Arabiyning shogirdi Sadriddin Kunaviyning ma’ruzalarini tinglaydi. Shundan so’ng “Fusus al-hikam” kitobini tahlil qilishga kirishadi. U “Lama’at” kitobida ushbu darsning his-hayajonga to’la qismlarini izohlaydi. Ushbu kitob Ibn al-Arabiyning panteistik nazariyalari bilan birga erotik terminologiyalarning o’ziga xos jihatlarini qamrab olgan bo’lib, ba’zan noaniq va tushunish qiyin edi. Ashi’at al-Lama’at alohida ahamiyatga ega bo’lgan batafsil, falsafiy va tasavvufiy sharh bo’lib, Alisher Navoiy “Iroqiy” asarlarining tarkibini tushunishda qiynalardi. Shu bois Jomiy ushbu asarga sharh yozishga kirishadi. Unda tasavvufiydagagi sevgi falsafasining



umumiyl so'fiy tushunchasini ishlab chiqadi. Ushbu sharhdan biz Jomiyning falsafiy qarashlaridagi yorqinlikni topishimiz mumkin. Jomiy uchun haqiqat (Xudo)ni bilishning asosiy vositasi bu sevgidir. Jomiy ushbu kitobga so'zma-so'z izoh beradi. Uning fikricha, "Sevgi, buyuklik bilan birga bo'lib, qat'iyatl emas, uning mohiyati yashiringan joyda, uni oshkor qilish va sir tutish mukammaldir. Uning mohiyati aynan o'sha mukammallikni ochib berishdir. Uning fazilatlarining mohiyati, u o'zini ishqda oyna kabi namoyon qildi...[7,242].

Ushbu tuzilish, albatta, buyruqqa ishora qiladi, «Metafora - bu Haqiqat uchun ko'priki» (almajāz qantarat al-haqīqa), bu So'fiy tomonidan Ruzbehon Baqli Sheroziy davridan beri mehr ila chaqirilgan shahid-bozi tarafdozlarining, chiroyli, soqolsiz yigitlarning hayratlari va Ilohiy go'zallikning «guvohlari» Jomiyning so'fiy yo'liga kirishi osonlashtirilmagan, hech bo'limganda qisman, Sadaddin Koshg'arining maslahat berayotganini tushida ko'rgan, uni o'z sevgisining shu kabi obyektlaridan ajratish azoblarini olib, davolash uchun uning sevgilisi, Xudoning, ajralmas sherigidir. Jomiyning fikricha, "asmo va sifot" tushunchalari o'rtasidagi farqli jihatlar Zoldan ayrilgan, chunki, mohiyat jihatidan esa, Zodning ayni o'zidir", deydi.

Jomiy qalamiga mansub "Xirodnoma Iskandariy" va Navoiyning "Saddi Iskandariy" asarlarini qiyosiy tahlil qilish har jihatdan o'ziga xos xulosalar chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bir tomonidan Navoiy o'z asarlarida "Xirotnoma"da keltirilgan ayrim boblarni o'rnini to'ldirish yoki almashtirish orqali Iskandar hayotidan kelib chiqadigan saboqlar o'rtasidagi bog'liqliknini to'la va mukammal aks ettiradi. Ikkinchisi tomonidan Navoiy Jomiy tomonidan ahamiyat berilmagan naqshbandiya tariqatida muhim bo'lgan "safar dar vatan" tushunchasiga alohida e'tibor beradi. Jomiy asari esa o'z navbatida avvalgi Iskandar to'g'risidagi dostonlardan farq qilgan holda jismoniy sayohat bilan ma'naviy sayohatni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, so'fiylikni bir qator tushunchalarini izohlab o'tadi. Jomiyning "Xirotnoma"siida Iskandarda dunyo kezuvchidan ko'ra ayniqsa, ichki sahohatni ya'ni insoniylikdan farishtalikka qadar yo'l tutgan odamning timsolini ko'rish mumkin. Jomiy asaridagi mazkur "o'zini anglash" tomon harakat qilish, Naqshband qarashlariga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. SH.M.Mirziyoyev. «Biz buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz». Toshkent, (2017). O'zbekiston nashriyoti. B.178.
2. Mark Toutant. Navoiy va Jomiy haqida rivoyat.Ingliz tilidan Z.Mirzayeva tarjimasi.
3. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. Главная редакция Восточной литературы. Составитель и редактор. Э.Р. Рустамов. Избранные труды. Том 4. М.: Наука, 1965.С.7.
4. Y.E.Bertels.Navoiy.Rus tilidan I.Mirzayev tarjimasi.SamDU.2010.B.186.
5. N.Komilov. Tasavvuf. Ikkinchisi kitob:Tahvid asrori.—T.:G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1999.
6. Alīshīr Navā'ī, Khamsat al-Mutahayyirīn, ms. Fatih 4056, ff. 690–691. Tawhīdī may be taken here as equivalent to wujūdī, without the negative connotations.
7. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. Главная редакция Восточной литературы. Составитель и редактор. Э.Р. Рустамов. Избранные труды. Том 4. М.: Наука, 1965.С.242.



МАЊНАВИЙ МАДАНИЯТ - ИЖТИМОИЙ РИВОЖЛANIШНИНГ МУХИМ ОМИЛИ

Хошимова Г.И., Низомий
номидаги Тошкент Давлат
педагогика университети
Масофавий таълим
кафедраси ўқитувчи
gulsinakhoshimova@mail.ru
Тел.99 488-70 -33

Аннотация: Ушбу мақолада ҳарбий маданият ва уни ривожлантиришда ҳам моддий ва мањнавий таркибий қисмларнинг уйғун комбинациясига эришиш муҳим эканлиги кўрсатиб ўтилади. Ҳарбий тизимда мањнавий маданиятнинг аҳамияти очиб берилади.

Калит сўзлар: ҳарбий маданият, ҳарбий фан, мањнавий тарбия, ҳарбий иш, жамият, интеллектуал салоҳият.

Бугунги кунда таълим муассасаларида, ҳарбий ва меҳнат жамоаларида, маҳаллий ёшлини мурасимиз қалбида Ватанга юксак муҳаббат, Қуролли Кучларимиздан ғурурланиш ва аждодларимизнинг буюк ҳарбий маҳорати ва маданиятини уларнинг онгига сингдириш ва шу орқали ҳарбий хизматга чуқур ҳурмат туйғуларини камол топтириш давлатимиз олдидағи асосий масалалардан бири ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти, И.А.Каримов таъкидлаганларидек “...дунё шиддат билан ўзгриб бораётган бугунги замонда, ҳалқимизнинг мањнавий қадриятлари, маданияти ва урф- одатларига мутлақо зид бўлган, ёт ва бузгунчи ғоялари жамиятимиз ҳаётига турли йўллар билан сингдиришга қаратилган уринишлар кучайган, айниқса ёш авлоднинг қалби ва онгини эгаллаш учун кескин кураш кетаётган бир шароитда, ҳарбий хизматчилар ва ҳарбий хизматгача бўлган ёшдаги фазандларимизни тарбиялаш ва уларни мањнавий – руҳий тайёргарлигини ошириш борасида ишларнинг роли ва ўрни тобора ортиб бормоқда”¹.

Ҳарбий маданият умумий маданият каби моддий ва мањнавий маданиятга бўлинади. Эътироф этиш керакки, маълум бир тарихий босқичда, ҳарбий маданиятнинг мањнавий жиҳати қўллаб-қувватланади, ёки аксинча, бошқа босқичда моддий жиҳатига кўпроқ эътибор қаратилади. Бу жамиятдаги иқтисодий, сиёсий ўзгаришларга боғлиқлиги билан изохланади. Ҳарбий маданиятнинг барқарор ва самарали ишлаши учун моддий ва мањнавий таркибий қисмларнинг макбул ривожланиши, кучли мувофиқлаштириш ва ўзаро алоқаларининг мавжудлиги катта аҳамиятга эга. Яъни, ҳарбий маданиятни ривожлантиришда ҳам моддий, ҳам мањнавий таркибий қисмларнинг уйғун комбинациясига эришиш муҳимдир. Юқорида баён этилганларга асосланиб, ҳарбий соҳадаги мањнавий маданиятни кўриб чиқамиз.

Ҳарбий маданият асосан ҳарбий фан ва ҳарбий санъат томонидан шаклланган, етарлича ривожланган билимлар тизими билан ажralиб туради. Айни пайтда ташқи дунёга назар соладиган бўлсак, ҳозир ахборот ва ахборот аралашуви кўринишидаги психологик операциялар, устувор операцион ва стратегик қуролга айланмоқда. “Мантиқий бомба” ва компьютерлар ҳам ҳарбий, ҳам тинч операцияларни бузишда ишлатилмоқда. Бу эса, армия сафларидаги ўғлонларимизни нафақат жисмонан бақувват, энг замонавий ҳарбий техника ва технологияларнинг сир- асрорини пухта эгаллаган бўлиши билан бирга юксак ақл-заковати, интеллектуал салоҳияти, мустаҳкам иродаси, ўз ҳалқига садоқати каби олижаноб хусусият ва фазилатлари билан ҳам ажralиб туришини талаб этади. Шундан келиб чиқиб, ҳарбий соҳадаги мањнавий тарбия ишларини тубдан яхшиланиши, аскарларимиз, ҳарбий хизматчилар онгу тафаккурига миллий истиқлол гояси тамойилларини чуқур сингдирилиши давлатимиз олдида муҳим вазифалардан бири бўлиб турибди.² 2018

¹ТИ.А.Каримов. Қуролли кучлари ташкил этилганининг 24 йиллиги мунособати билан, Ватан химоячиларига байрам табриги. “Халқ сўзи” газетаси .2016й.№ 12.

² Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари тизимида мањнавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш Концепцияси. // расмий нашр// Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. –Тошкент: Адолат, 2018 . – Б.2.



йилд 4 августда “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисидаги концепция”нинг қабул қилиниши, юқоридаги фикрларимизга асос бўлади.

Уруш ва ҳарбий ишлар, жамият ривожланишининг дастлабки босқичларидан бошлаб, ҳалқ санъати ва турли хил санъат турлари орқали намоён бўлган. Тарихга назар соладиган бўлсақ, ҳалқ оғзаки ижоди ва миллий адабиётимизнинг кўплаб асарлари ушбу мавзуга бағишлиланган. Бу қаҳрамонлик достонлари, ҳалқ қўшиқлари, афсоналар ва ёзувчиларимизнинг асарларида ўз аксини топган ва маънавий маданиятни ривожланишида восита сифатида фойдаланилган. Ҳарбий тизимда маънавий маданиятнинг аҳамияти қўйидагилар билан белгиланади:

-маънавий маданият жамият ҳаётининг барча соҳаларида, шу жумладан ҳарбий соҳада ҳам янгилик манбаи бўлиб хизмат қиласди;

-маънавий маданият ҳарбий хизматчиларнинг ўзини ўзи англаш воситаси бўлиб, шахснинг ўзига ҳам, бутун тарихий жараёнга ҳам таъсир қиласди;

-маънавий маданият тегишли шароитларда ўзини ижтимоий ривожланишнинг муҳим омили сифатида намоён этади;

-ҳарбий маданиятни ўзлаштириш жараёни ҳарбий хизматчиларда жамоатчилик ва маънавий бирлик каби муҳим фазилатни шакллантиради.¹

Юқоридаги тавсифлардан ҳарбий маданият, инсон фаолиятининг ўзига хос томонини акс эттирадиган, жамият, давлат ва шахсни манфаатларини ҳимоя қилишнинг ўзига хос тури бўлиб, шахс, сиёsat ва ижтимоий ҳаёт соҳасидаги кўп қиррали ва динамик муносабатларига киради ва ижтимоий ҳодиса сифатида ўзини намоён этади, деган хulosага келишимиз мумкин.

¹ Горбунов В.С. Методологические проблемы теории и практики системного формирования личности советского воина: Автореф. д-ра филос. наук. -М.: ВПА, 1991.



ҲАРБИЙ МАДАНИЯТ ВА ҲАРБИЙ ЭТОСНИНГ ИЛМИЙ - НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Хошимова Г.И., Низомий
номидаги Тошкент Давлат
педагогика университети
Масофавий таълим
кафедраси ўқитувчиси
gulsinakhoshimova@mail.ru
Тел. 99 488-70-33

Аннотация: Ушбу мақолада ҳарбий маданият тушунчаси хусусиятлари назарий-услубий жиҳатдан таҳлил қилинганд. Шунингдек, меъёрий қадриятлар, маънавий-ахлоқий ва белги элементларини ўз ичига олган ҳарбий маданият ва ҳарий этосни фалсафий нуқтаи назаридан тадқиқ этиш, ўрганиш ва илмий асосланган хулоса, таклиф ва тавсиялар бериш муҳим аҳамиятга эга эканлигини асослаб берилган.

Калит сўзлар: жангчи, ҳарбийлар маданияти, ҳарбий хизматчи, армия маданияти, ҳарбий онг, ҳарий этос.

Ўзбекистонда миллий армиянинг шаклланиши, ундаги ҳарбий ислоҳотлар фуқароларнинг, айниқса ёшларнинг мудофаавий онг ва маданиятини шакллантириш, уни янада юксалтириш давлат сиёсатининг устувор йўналишлари қаторига кирганлиги билан ҳам боғлиқ. Бу эса, ҳалқимизга хос бўлган миллий қадриятлар тизимида ватан ҳимояси, ватанпарварлик анъаналарининг жамият сиёсий маданиятида акс этиши ва мудофаавий онг ва ҳарбий маданият ва ҳарий этос механизмларини ҳар томонлама ўрганишни, илмий сиёсий нуқтаи-назардан асослаб беришни тақозо қиласди. Шу билан бирга меъёрий қадриятлар, маънавий-ахлоқий ва белги элементларини ўз ичига олган ҳарбий маданият ва ҳарий этосни фалсафий нуқтаи назаридан тадқиқ этиш, ўрганиш ва илмий асосланган хулоса, таклиф ва тавсиялар бериш муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади. Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридан Хавфсизлик кенгашининг миллий армияни янада ривожлантириш ва ислоҳ қилиш масалаларига бағишлиланган кенгайтирилган йиғилишида давлатимиз Президенти, Қуролли Кучлар Олий Бош Кўмандони Шавкат Мирзиёев "Армия моддий жиҳатдан энг замонавий ва зарур воситалар билан таъминланган бўлиши мумкин, лекин ахлоқий жиҳатдан заифлиги, жангвар рухи, Ватанга содиклик ва муҳаббат, унинг тақдирни учун масъулият ҳисси йўқлиги ёки лоқайдлик, тузатиб бўлмас оқибатларга олиб келиши мумкин" ¹ эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтди.

Ҳарбий маданият, ҳар хил тарихий босқичларда турли хил муносабатлар ва хусусиятлар сифатида тушунилган. Таъкидлаш жоизки, ҳарбий маданий ҳодисаларни ҳар хил нуқтаи назардан ўрганиш мумкин. Масалан, бир ҳолатда ҳарбий маданиятни жамиятнинг умумий маданиятининг шаклларидан бири, деб ҳисоблаш мумкин. Бошқа ҳолатда, ҳарбий маданиятга, жамиятнинг сиёсий (шу жумладан) тизимига нисбатан «маданий онгли тузилма» сифатида эътибор қаратиш мумкин. Улар ҳарбий маданиятни нафақат ўзига хос хусусиятларни белгилабгина қолмай, балки жамоат ҳаётининг кўплаб хусусиятларини ифода этадиган концентрланган (ўрганиш даражаси аввалги таркибининг бирлиги билан боғлиқ ва ундан мураккаблиги ва ҳажми жиҳатидан фарқ қиласди) шаклда ҳам бўлиши мумкин.

Бизнинг назаримизда, ҳарбий маданият тушунчасини муҳим хусусиятларини назарий-услубий жиҳатдан чуқур, ҳар томонлама таҳлил қилинишда, унга боғлиқ ёки синоним тушунчаларнинг доирасини аниқлаш ва таҳлил қилиш ўта муҳимдир. Шундан келиб чиқиб, ҳарбий маданиятга энг яқин тушунча "ҳарбийлар маданияти" тушунчасини таҳлил қиласмиз. Таъкидлаш жоизки, кўп тадқиқотларда ушбу тушунчаларга синоним деб қарайдилар, чунки уларнинг моҳияттан фарқи сезиларли даражада эмас. Назаримизда, сезиларли фарқи "жангчи" ва "ҳарбий" сўзларининг маъносиададир. Подполковник Ш.З. Долимов томонидан тузилган "Ҳарбий атамаларнинг қисқача луғати"даги маълумотларга

¹ Хавфсизлик кенгашининг миллий армиямизни янада ривожлантириш ва ислоҳ қилиш масалаларига бағишлиланган кенгайтирилган йиғилиши материаллари. 10 янв. 2020 й.



асосан, “жангчи” - бу армияда хизмат қиласынан, душман билан жанг олиб борадынан одам, ўз юртингенде қороли ҳимоячысы, ҳарбий хизматчи эса – бу армиядаги хизматта алоқадор, армияда хизмат қылувчи шахс.¹ Демак, “жангчи” түшүнчеси “ҳарбий хизматчи” түшүнчесига қараганда көңг маңнога эга. Ҳарбий хизматта оид, “ҳарбий хизматчи” түшүнчаларини ажратында имкон берадынан яна бир сезиларлы фарқ бор. “Жангчи” түшүнчеси күпроқ қадымдаги жангчиларга нисбатан ишлатылады (архайк жиҳатдан), ёки замонавий ҳарбийлар мавқенини күтариш учун ишлатылады, бу эса алохыда жүшкін, тантанали лаҳзаларда күринади. Масалан, “жангчи” түшүнчеси ватанпарварлык нұтқи матніда, ҳарбий маданият маңнавий асосларыда чиройлы жараптайды. Ушбу аниқланған түшүнчалар аслида бир-биридан фарқ қиласы: ҳарбий хизматчи - армияда хизмат қиласынан жангчи; жангчи - бу ҳарбий ҳаракаттарда қатнашадынан ҳар қандай фуқаро, шу жумладан армияда хизмат қылмайдындарлар ҳам. Шундай қилиб, “жангчи” түшүнчеси “ҳарбий хизматчи” түшүнчесидан анча кенгроқ бўлиб чиқади. Худди шу нарса, бизнинг фикримизча, ҳарбийлар маданияти ва ҳарбий маданият ўртасидаги тафовутларга тааллуқлидир. Ҳарбийлар маданияти, ҳарбий ҳаракаттарда иштирок этган ҳар қандай шахсга хос бўлган нормаларни, хулқ-атвор қоидалари, қадриятларни ва бошқаларни ўз ичига олади. Ҳарбий маданият эса, ҳарбий фаолият соҳасини ташкил қилишнинг ўзига хос усули, у моддий ва маңнавий меҳнат, ижтимоий муносабатлар, меъёrlар ва қадриятлар тўплами орқали ифодаланған тизим бўлиб, ҳарбий хизматчилар ёки профессионал ҳарбийлар онгига мақсадли равишда сингдирилиши билан ажралиб туради. Фикримизча, ҳарбийлар маданиятини ҳарбий маданиятининг бир қисми сифатида кўриш мақсадга мувофиқ, юқоридаги фикрларимиз эса бунга асос бўлади. Бу эса, ўз навбатида ҳарбий хизматчиларни маңнавий савиясини кенгайтиришга хизмат қиласы. Шунингдек Қўшинларнинг жанговар шайлиги ва жанговар қобилиятини ошириш, мард ҳарбий хизматчиларни тайёрлаш, она-Ватан тақдирига бўлган масъулиятини мустаҳкамлаш, гоявий ва ахборот хуружларига қарши мафкуравий иммунитетларни кучайтириш, буюк саркардаларимизнинг ҳарбий санъати ва саркардалик маҳоратлари, буюк ҳарбий тарихимиз, ҳарбий урф-одат, анъана ва қадриятларнинг моҳияти, аждодларимизнинг бой ҳарбий мөъросининг армия ҳаётидаги ўрни ва аҳамиятини чуқур тушуниш мухим ўрин эгаллайди.

1 Долимов Ш.З. Ҳарбий атамаларнинг қисқача луғати. – Тошкент: ЎМВ, 2007. – 82 б.



АБУ ҲОМИД ҒАЗЗОЛИЙ МАЪРИФИЙ ИНҶИРОЗИННИГ ФАЛСАФИЙ ТАФАККУРИГА ТАЪСИРИ

Бухоро давлат университети докторанти
Қодиров Давронбек Ҳошимович, dagotys@mail.ru

Аннотация: Мақолада мутафакир ва мутасаввиғ Абу Ҳомид Ғаззолийнинг тасаввуфий-ахлоқий қарашлари ривожига маърифий инҷиrozининг таъсири очиб берилади.

Калит сўзлар: маърифий инҷиroz, тасаввуф, қалб, иррационал ёндашув, хилват, руҳий риёзат.

Араб шарқшунослари Ахмад Шамсуддин ва Абдураҳмон Бадавий Ғаззолийнинг скепсисга берилишини Рене Декартнинг скептицизмiga ўхшатади. Мутафаккирнинг ушбу шубҳаларга тушиши ва инҷиroz даври руҳоний инҷиroz (*ал-азма ар-руҳония*) эмас, балки маърифий инҷиroz (*ал-азма ар-маърифия*) бўлган.

“Менга зоҳир бўлдики, илм ул-яқин (ҳақиқий илм) шундай илмки, маълум бўладиган нарса ўзини ўзи топади, кашф этади ва бунда шубҳага ўрин қолмайди. Унинг ўзи эса хото ва ваҳм (иллюзия, сароб) пайдо бўлиши имконияти билан боғланмайди, ва онг унинг тўғрилигига баҳо беришда ожизлик қиласди (қалб кенгаймайди)”.

Бундан кўриниб турибдики, Ғаззолий ўзини қийнаган фалсафий саволларга жавоб топмоқчи бўлган, у мусулмон перипатетизми вакиллари Форобий, Ибн Сино ва Берунийлар аристотелизми, мўътазиланинг онтологияси, ботинийларнинг таъвил ҳақидаги қарашлари ва мутакаллимларнинг абсолют фаталистизмга мойиллиги, Аллоҳнинг борлиқдан ажратилишига қарши бўлган. У иррационалликни рационалистик мушоҳада орқали исботлашни истаган. Шу билан бирга дин ва фалсафа ўртасида “олтин оралиқ”, яъни васатия – ўрта йўлни топиб, муросага келтирмоқчи бўлган.

Шарқшунослар ва тадқиқотчи олимлар Ғаззолийдаги бу ўзгаришни турлича талқин қиласдилар. Унинг руҳий инҷиrozи тўғрисидаги илмий баҳслар ҳалигача тўхтагани иўқ. Баъзилар мутафаккир ҳаётидаги бу кескин бурилишни сиёсий сабаблар ёки жонига таҳдид бўлгани билан боғлайди. Кимdir унинг эътиқодга нисбатан рационал ёндашув билан эмас, балки иррационал ёндашув ва шахсий руҳий риёзат, кечинмалар орқали Аллоҳни англаш лозим, деган фикрга келган деса, бошқалар буни мистик ўзига хос адабий услуб, деб талқин қиласди.

Абдулҳусайн Зарринкуб ҳассос, тиришқоқ ва илмларнинг тубига етишга интиладиган Ғаззолийни ўша даврдаги анъанавий фанлар қониқтира олмаслигини, ҳашамли ҳаёт ҳамда жозибадор лавозимлар жалб этмаслигини таъкидлайди.

Ғаззолийнинг эътироф этишича, у бир неча марта Бағдоддан чиқиб кетиш, атрофидаги одамлар билан алоқани узишни режалаштиради. Ҳар бор энди бунга қўл урмоқчи бўлганида кечга бориб васваса ва хавотирлари туфайли фикридан қайтади: “Шу пайт шайтон пайдо бўлиб менга дерди: “Бу вақтингчалик ҳол, унга берилмагин. У албатта тезда ўтиб кетади, агар унинг таъсирига тушсанг, тартибга тушган ва бир маромда ўтаётган, хусумат ва ғам-ташвиш билмас ҳаётингдан, душманларнинг ҳам қўлингдан олиб билмайдиган мавқеингдан айриласан. Эҳтимол, нафсинг бу ҳаётга яна интилар, бироқ унга энди қайта олмайсан”.

Қарийиб олти ой давомида дунё истаклари (шаҳавот) ва охират даъватлари орасида тинимсиз иккilanар эдим. Бу 488 йилнинг ражаб ойида (1095 йилнинг июль ойи) бошланган эди. Ўша ойда ишлар ихтиёр чегарасидан чиқиб зарурат худудига ўтди. Аллоҳ менинг тилимни боғлади, ҳатто дарс ҳам ўтолмай қолдим. Ажойиб кунларнинг бирида таълим олаётган турли қалб эгаларига дарс ўтмоқчи бўлганимда, тилимга бирорта калима келмай қолди ва қанчалик ҳаракат қилсамда ичимдан бир сўз ҳам чиқаролмадим. Натижада тилимнинг бу боғланиши сабаб қалбимда маҳзунлик уйғонди. Шу билан бирга менда ҳазм қилиш қуввати ўқолди, таом ва ичимликлар лаззат бермасди, нон ҳам томофимдан ўтмасди ва бир луқманиям ҳазм қилолмай қолдим. Шунда қувватим заифлашди ва менинг тузалишимдан табибларнинг умиди узилиб, шундай дедилар: “Бу нарса қалбни жароҳатлаб, сўнгра тана ва мижозга тарқалгандир. Токи уни ташвишга солаётган нарсаларнинг сири



очилмагунча унга даво топиб бўлмайди". Сўнг ўзимни заифу афтода ҳис қилиб, батамом ихтиёrimдан айрилгач, мен зарурат сабабидан ва бирор чора топишга имкони йўқ одамлар каби Аллоҳ Таолога юзландим. Ва шунда эҳтиёжманд кишилар дуосига жавоб берувчи Зот менга жавоб қайтарди. Қалбим учун обрўли мансаб, бойлик, ахлу аёлим, фарзандларим ва дўстларимдан воз кечиш осон бўлди".

Ғаззолийга тинч-осуда ҳаётдан воз кечиш осон бўлмаган, у рухан-маънан изтироб чеккан. Ички бир овоз унга: Сафарга чиқ, йўлга туш! (*ар-раҳил, ар-раҳил*) Умр абадий эмас, оз қолди, деган. Аллома ўзлигини топиш, нафсини поклаш, ахлоқини камолотга етказиш учун машаққат ва риёзат чекиши лозимлигини англаб етади. Бунинг ягона йўли сўфийлар изидан бориш деб хулоса чиқаради.

Сўнгра ташвишлар ва фарзандлар даъвати мени ватанинга чорлади. Мен шунгача қайтиш фикридан йироқ бўлишимга қарамасдан у ерга қайтдим. Аммо (ватанинга қайтгача ҳам) узлатни афзал билдим ва хилватда қалбимни зикр ила поклар эдим.

Замона ҳодисалари, аёлим, оилавий ташвишлар ва турмуш эҳтиёжлари мақсад-муродимдан қайтариб, хилватдаги ҳаловатимни бузар эди. Баъзи вақтлардан ташқари ҳолим соғ бўлмасди. Шунга қарамай ҳолга тушишдан умидимни узмасдим. Ҳар сафар олдимдан тўсиклар чиққанида ундан ошиб ўтар ва мақсадим сари интилар эдим. Шундай қилиб бу ҳол ўн йилча давом этди. ушбу хилват давомида менга на санаш ва на ўрганишнинг имкони йўқ нарсалар кашф этилди..."

Ғаззолий оиласи ва одамлардан узлат ҳамда хилватга чекиниб, сўфийлар айтадиган ҳол ҳолатига эришади. Шунда унга борликдаги саноғи ҳам, миқдори ҳам йўқ, ақл билан ўрганиш иложисиз бўлган нарсалар сири кашф бўлади. Мутафаккир уларнинг моҳиятини сўфийларнинг медитация методи билан бошидан кечириб ҳиссий англайди.

Мутафаккир ўн бир йиллик руҳий сайр ва узлатдан сўнг Нишопурга қайтади ва 1106 йилда яна мадрасада таълим бера бошлайди. А. Ж. Арберрининг фикрига кўра унинг бу ҳаёти "тинимсиз машғулотлар ва кўпгина асарлар яратиш билан кўзга ташланади".

Игнац Голдциер унга шундай юксак баҳо берганди: "Агар Мухаммад (а.с.)дан сўнг пайғамбар бўлганида эди, бу албатта, Ғаззолий бўлар эди".

1105 йилда Ғаззолийни салжуқий Султон Санжарнинг вазири ва Низомулмulkнинг ўғли Фахрулмулк чақириб олади. Ҳадисда айтилганидек, ҳар бир асрда диннинг янгиловчи - мужаддид келади. Шу мужаддидлик Ғаззолийга тақдир этилгани учун 1106 йилдан бошлаб Нишопурдаги Низомия мадрасасида дарс беришни бошлайди. "Ал-мунқиз мин аз-залол" рисоласиям шу пайтда ёзилади. 1111 йилда, қиши фаслида то дунёдан ўтгунига қадар, Тусга қайтиб келиб хонақоҳ ташкил қиласи ва тасаввуфдан таълим беришни бошлайди. Аллома 19 декабрь куни Табарон ёнида дафн этилади.

Хулоса қилиб айтганда, Ғаззолий яшаган даврнинг мураккаблиги, ижтимоий-сиёсий вазият, вазир Низомулмulkнинг маърифат ва таълим соҳасидаги ислоҳотлари, ижтимоий-иқтисодий бекарорлик сабаб ҳалифаликда вужудга келган турли теологик ҳаракатлар ва улар қарашлар ўртасидаги рақобат ҳамда кураш буюк аллома, мутафаккирнинг етишиб чиқишига замин яратган. Унинг шундай мураккаб даврдаги асосий вазифаси суннийлик оқимини кучайтириш ва ҳимоя қилишдан иборат эди. Ғаззолий бу вазифадан ташқари соғистлар, таълимиyлар, ботинийлар, мутакаллимлар қарашларига скепсис билан қараб, сўфийлар қарашларига рационал ва мантиқий-фалсафий нуқтаи назардан ёндашиб, тасаввуф таълимотининг устунлигини асослаб берган. Мутафаккир фикрича, тасаввуф инсонни маънавий-руҳий камолотга етказиша, унинг ахлоқини шакллантириш ва тарбиялашда илоҳий моҳият билан узвий боғлиқдир.

Адабиётлар:

1. Ҳужжат ул-Ислом Абу Ҳомид Ал-Ғаззолий. Ал-мунқиз мин аз-залол. Жамил Салиба ва Комил Айёд нусхалари. 7-нашр. Байрут, Дор ул-Андалус, 1967.- С. 6-11.
2. Бертельс. Е. Э. Суфизм и суфийская литература. Избранные труды. Издательство «Наука», Москва, 1965. –С. 42.



“MEN DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM TAHDIDINI QANDAY TUSHUNAMAN”

Javohir Nimatov Olim o‘g‘li,
Qashqadaryo viloyati yuridik
texnikumi 2-bosqich o‘quvchisi,
javohir_nimatov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola diniy ekstremizm va terrorizmni hozirgi davrda qanday tushunishimiz va qabul qilishimiz haqida bo‘lib, bunda uni mamlakatimiz va butun dunyo uchun katta xavf tug‘dirishi hamda uning daxshatli oqibatlari va ularni

Kalit so‘zlar: Diniy ekstremizm, Terrorizm, Islom, ma’rifat, diniy bag’rikenglik, shahid, hijrat, ma’naviyat.

Terrorizm?! U zulm! U to’sqinlik! U Jaholat! U daxshat.....

Yaxshilik - bu odam o‘ldirishmi? Tinchlik – bu portlatishmi? Adolat - bu erkinlikdan mahrum qilishmi? Islom – bu yovuzlikmi? Aslo, unday emas! Demak, diniy ektremizm va terrorizmni ham ezgulik va unga yaqin atamalar bilan bog’liqlik joyi yuq! Men buni, shunday tushunaman.....

Ijozat bersangiz yaqinda Suriyada yuz bergen bir voqeа bilan, ushbu yuqorida aytigan so‘zlarimni bog’liqlik jihatlariga qisqacha to’xtalsam: “Jangarilar safiga qo’shilib qolgan o‘g’lini yo‘ldan qaytarish uchun bir onaizor o‘g’liga yalinib-yolvoradi va buni ko’rgan oqpadar o‘g’il o‘z “rahnamo”siga uni ko’rsatadi. “Rahnamo”sidan tegishli buyruqni olgan oqpadar o‘g’il onasini u ishlaydigan pochta binosi yonida vahshiylarcha otib o‘ldiradi.” Xo’sh bu daxshat emasmi?! Xulosa o‘zingizdan....

Payg‘ambarimiz (s.a.v) hadisi sharifda: “*Haqiqiy muhojir Allah va Rasuli qaytargan narsadan hijrat qilgan (qaytgan) musulmondir*” deb marhamat qilganlar. Islom dini Vatanga hiyonat, qotillik, buzg‘unchilik, o‘zini o‘zi o‘ldirish, o‘zgalarga zum qilish, ota-onaga oq bo‘lish kabilardan qaytaradi.

O‘zbekiston azaldan turli millatga mansub, turli dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashagan o’lka bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo hurmat bilan munosabatda bo‘lgani, Vatan taraqqiyoti yo‘lida yelkadosh bo‘lib mehnat qilgani tarixiy manbalarda ko‘p qayd etilgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston aholisining soni 34 mln.dan oshgan bo‘lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Fuqarolarning 94% dan ziyodi islom diniga e’tiqod qiladi. 3,5% ga yaqin fuqarolar pravoslav diniga mansub bo‘lib, qolganlarini boshqa konfessiya vakillarini tashkil etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiyaga mansub 2 238 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2 064 tasi islomiy, 157 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiy jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va Buddha ibodatxonasıdir. Bulardan tashqari konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda. Ushbu diniy tashkilotlarning emin-erkin faoliyat olib borayotgani ham yurtimizda hukm surayotgan diniy bag’rikenglikning amaliy ifodasidir. Hech shubhasiz, yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan barcha ulkan yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik hisoblanadi. Ma’lumki, bugun muslimmon olamida murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kechmoqda. Yaqin Sharq va boshqa hududlardagi qator mamlakatlar chuqur siyosiy tanglik, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlik va qurolli to’qnashuvlarni boshidan kechirmoqda. Mazkur hududlarda go‘yoki haqiqiy “islomiy davlat” qurish shiori ostida ochiqdan-ochiq zo‘ravonlik, insoniylikka zid vahshiylarlarga asoslangan amallarga qo‘l urayotgan turli guruh va jamoalar urchib ketdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimov ta’kidlaganlaridek: “*Bugungi kunda dunyoning turli mintaqa va hududlarida avj olayotgan qarama-qarshiliklar, qonli to’qnashuvlar, muslimmon dunyosidagi turli mazhab va oqimlar o’rtasida kuchayib borayotgan nizo va ziddiyatlar, begunoh odamlarning qurban bo‘layotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmay qo‘ymaydi*”. Afsuski, yoshlar muayyan qismi ISHIDni haqiqatda ham islom dinini butun dunyoga tarqatish, islomiy davlat barpo etgan holda dunyoda adolat o‘rnatishni maqsad qilgan tashkilot deb hisoblaydi. Bunday fikrlovchilar Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda ham bor ekani hech kimga sir emas. Bunday yoshlar yuqorida qayd etilgan hududlarda insonlarga qarshi sodir etilayotgan jinoyatlarni go‘yoki xalifalik qurish uchun joiz amal hisoblab qattiq adashmoqdalar. Aslida,



mutaassib oqim a'zolarining maqsadlari — “jihod”, “hijrat”, “shahidlik”, “kofir bo'lish” kabi diniy tushunchalarni soxta talqin qilish orqali yoshlarimizni oilasi va yaqinlarining ta'siridan chiqarish, o'qish yoki ishidan ajratib olish hamda ularni qurolli to'qnashuvlar ketayotgan Suriya, Iroq, Afg'oniston yoki Pokiston kabi mamlakatlarga jo'natib, manqurt-jangari yoki “tirik bomba”ga aylantirishdan iborat. Hozir ISHID tarkibida aldangan yoshlар juda ko'p. Ular “kofirlarga qarshi jihod qilyapmiz, orzuimiz jannat”, deb o'ylashadi-yu, ammo musulmonlarni qatl etib, og'ir gunohga botmoqda.

Diniy ekstremizm dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga tahdid solib kelmoqda. Jumladan, diniy ekstremistik oqim tarkibiga kirib qolgan shaxs:

- oilasi, qarindosh-urug'lari va yaqin insonlaridan mahrum bo'ladi;
- jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini yo'qotadi, chuqur ilm olish, yaxshi kasb egas bo'lish va hayotda munosib o'rın egallash imkoniyatlaridan ayrıladı;
- yon-atrofidagi jarayonlarga shaxsiy munosabatga ega bo'la olmay, vogelikka faqat DEO nuqtai-nazaridan qarashga majbur bo'ladi;
- umri qamoqda yoki o'zga yurtlarda xor-zor va sargardonlikda o'tadi, ota-onasi, turmush o'rtog'i va farzandlari oldidagi insoniy majburiyatlarini bajara olmaydi.

O'z navbatida, diniy ekstremistik g'oya va yot diniy qarashlarning jamiyatdagi ijtimoiyma'naviy muhit va tadrijiy rivojlanishga zararli ta'siri quyidagilarda aks etadi:

- DEO a'zosi qonuniy jazoga tortilishi yoki “hijrat” da'vosida xorijiy yurtlarga chiqib ketishi oqibatida jamiyatning birlamchi bo'g'ini bo'lgan oilalarda parokandalik yuzaga keladi, farzandlar tarbiyasiz, oilalar esa boquvchisiz qoladi;
- jamiyatda an'anaviy qadriyatlarni avloddan avlodga uzatish tizimi va tadrijiy rivojlanish jarayoni buziladi, mazkur jamiyatda asrlar osha muhim o'rın tutgan milliy, madaniy, tarixiy qadriyatlar ahamiyatini yo'qotishi oqibatida ma'naviyat pasayadi;
- ekstremistik va terroristik harakatlar sodir etilish orqali jamiyatda “yovuzlik chegarasi” pasayib, odamlar qotillik, qynoq, bosqinchilik, garovga olish, qulchilik kabi jinoyatlarga ko'nikib qoladi.
- Ayni chog'da, ushbu yovuzliklar jamiyatning muayyan qismida vahima uyg'otadi, qochoqlar oqimi paydo bo'ladi;
- terrorizm va ekstremizm, ular oqibatida kelib chiqadigan ijtimoiy beqarorlik jamiyatda kriminal jinoyatlarning avj olishiga xizmat qiladi;
- davlat tomonidan xavfsizlik choralarini ko'rish uchun byudjet mablag'larini sarflashi, shuningdek, terroristik harakat oqibatida ko'rilib yurayotgan moddiy zarar jamiyatga iqtisodiy jihatdan katta zarar yetkazadi. Oqibatda ishsizlik oshadi, ijtimoiy muhofazaga yo'naltirilgan loyihalar bajarilmay qoladi, aholining turmush darajasi pasayadi;
- mamlakatning taqdiri iqtisodiy donor va qurol-aslasa sotuvchi davlatlarga bog'liq bo'lib qoladi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 19-sentabr BMT bosh Assambleyasining 72-sessiyasida qilgan nutqini barchamiz birdek eslaymiz, albatta. Unda yurtboshimizni: “Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Afg'oniston masalasi global miqyosdagi masalalar markazida bo'lishi lozim. Xalqaro hamjamiatning sa'y-harakatlari, birinchi navbatda, Afg'onistondagi o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilishi kerak.” deya ta'kidlaganliklarining o'ziyoq o'zbek xalqini Afg'on xalqi bilan yelkadosh va birdam ekanligi isbotidir. Undan tashqari Yurboshimizni “**Ma'rifat va diniy bag'rikenglik**” deb nomlangan maxsus rezolutsiyani qabul qilish taklifi bilan murojaat qilganliklari barchani e'tiborini o'ziga qaratdi, desak adashmagan bo'lamiz.

Ushbu rezolutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarining huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilganini o'ziyoq dunyoda ushbu yomon illatlarni bartaraf etish va uni insoniyatdan iloji boricha nari qilish imkonini beradi. Bundan tashqari markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebafo hissasini alohida qayd etish joiz. Biz shunday insonlarning avlodimizku, axir?! Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan “Sahihi Buxoriy”ning muallifi sifatida butun dunyoda tan



olingoan.

Bu ulug‘ zotning g‘oyat boy merosini asrab-avaylash va o‘rganish, ma’rifatiy islom to‘g‘risidagi ta’limotini keng yoyish maqsadida Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etilgani , Qur‘on musobaqasi o‘tkazilganligi, diniy kutubxonalar ko‘paygani biz yoshlar uchun qulaylik emasmi?! Shundan so‘ng ham bizni o‘sha salbiy illatlar o‘z domiga tortishi o‘zimizning aybimiz emasmi?! Balki bilimsizligimizdir?!

Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo’shish – har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan barcha fuqarolarning, talaba-yoshlar balki davlat yoki jamoat tashkilotida ishlashi, tadbirkor yoki boshqa kasb egasi bo’lishidan qat’iy nazar, eng asosiy vazifalaridan bo’lib qolmog’i lozim.

Zero, Payg‘ambarimiz (s.a.v) marhamat qilganlaridek: “*Haqiqiy musulmon bu – musulmonlar uning tili va qo’lidan omonda bo’lishliklaridir*”

Do’stlar, talaba-yoshlar va tengdoshlar! Kelajak bunyodkori sifatida ertaga ushbu illatlarni mamlakatimiz va butun dunyodan nari bo’lishi siz-u bizga bog’liq ekanligini hech qachon yoddan chiqarmaysiz degan umiddaman.

Shoir aytganidek :”*Oq sutiga rozi bo’lsin onang qaro ko’zliging,
Oqla yegan non, tuzingni
Harom qilma tuzlug’ing.
Joning bilan birga ketsin ketsa agar, o’zliging!*”

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shaotlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. - T.: O’zbekiston, 1997.
2. J.Do’stmurodov, M.Oltiboyev, N.Azizova. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. T.O’zbekiston, 2007.
3. www.uza.uz sayti/



“JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT”

Алиев Нурислом Абдимуротович,

Адлия вазирлиги хузуридаги Қашқадаре вилояти
юридик техникуми Ёшлар билан ишлаш бўлими услубчиси,
nurislom_ittifoq@mail.ru

Annotatsiya: Maqlada jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish tarixan va hozirgi globallashgan zamonda naqadar muhim ahamiyat kasb etishi, bu orqali insoniyatga xavf soluvchi qanchadan-qancha illatlarni oldini olish mumkinligi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Ma’rifat, jaholat, ma’naviyat, COVID 19, mentalitet, qadriyat, madaniyat, pandemiya.

Chamasi 11 yosh edim. Maktabda ustozlarim: “Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishimiz lozim” deyishardi, shunda “Jaholat” so’zini eshitganimda ko’z oldimda “urush” yoki “jangari film”lar tasvirlanardi. Balkim, o’sha payt bu so’zni ma’nosini bilmaganidan edimi? Xullas tushunmasdim. Keyinchalik “Jaholat” so’zini ma’nosini ustozlarimdan va birinchi prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov bobomizning kitoblaridan o’qib, bilib oldim. “Jaholat insoniyatning eng zo’r dushmani va yomon xulqlarning boshlig’idir” Abdulla Avloniy bobomizni ushbu fikrini o’zi jaholatga yetarlicha ta’rif beradi desam menimcha siz ham qo’shilasiz. Shuni tushunib yettimki bolalagimda “Jaholat va “Urush” so’zini sinonim ekanini to’g’ri topgan ekanman. “Miyanga kelgan birinchi fikr to’g’ri bo’ladi” deb shuni aytsalar kerak. To’g’ri, “Jaholat” so’zi to’g’ridan-to’g’ri “urush” ma’nosini anglatmasada lekin urush va unga sinonim barcha so’zlarning ildizi shu ‘Jaholat’ orqali kelib chiqishini o’ziyoq bolalikdagi tasavvurim haq ekanini bildirmaydim?! Masalan, urush haqida so’z ochdim, endi urushdan misol keltiraman. Ikkinchi jahon urushini sababi nimada edi? Uni “ma’rifatli inson” boshlaganmidi? Gitler “ma’rifatli inson” bo’lganmi? yoki bo’lmasa pok dinimizning niqob qilib olib insonlarni “portlatish” va “hayvondek o’ldirish” “ma’rifatli inson”larni ishi deb o’ylaysizmi? Odamlarni tiriklayin qul qilib sotayotganlarchi ular ham “ma’rifat”limi? Buyuk shoir va yozuvchilarimizni “Millatchilikda” ayblab ottirganlar ham “marifatli inson”lar bo’lganmi? Mehnatkash halqimizni “Paxta ishi”da ayblaganlarchi? Mustaqilligimizni ko’rolmay qilingan “Ish”lardachi? ularni ham “ma’rifatli inson”lar qilganmidi?

Aslo yo’q!

Buni barchasini tag ildizida “Jaholat” yotibdi, ha o’sha bolaligimda “sovuj urush”larni eslatuvchi Jaholat!

“Suqrot hakim aytadilarkim: Dunyoda eng hazar qilinadurg’an illat johillikdur. Men johilga achinganimdek, ko’rga achinmayman, zeroki, johilning o’z ixtiyori ila qilgan harakoti a’moning ixtiyoriy qilgan harakotidan mening nazarimda xunuk” (“Turkiy guliston yohud axloq” A.Avloniyasidan)

Endi savol tug’iladi, xo’sh jaholatni qanday yengamiz? Bu ko’rinmas “Yovuz kuch”ni taslim qila oluvchi kuch bormi o’zi?

Albatta bor! Bu-ma’rifat, biz faqat u bilan yenga olishimiz mumkin. Bu eng to’g’ri yo’l!!! Shu o’rinda savol tug’iladi ma’rifat o’zi nima? Uni qayerdan olamiz? Ma’rifat - bu ezgu g’oya va bilimlar yig’indisi, uni ota-bobolarimiz qoldirgan urf-odat-u yodgorliklarimiz va tarix hamda kelajak bilimlarini o’zida jamlagan beqiyos xazina bo’lmish kitoblarimizdan olishimiz mumkin.

Masalan, yana urushga qaytsak, xo’sh bizni ota-bobolarimiz ikkinchi jahon urushida o’sha jaholatga qarshi qanday ko’rashgan edilar? Ular ham “Biz germaniyani bosib olamiz, O’zbek irqini dunyoda tengsiz ekanini ko’rsatib qo’yamiz” deganmidi? Yo’q aksincha ular oilasi, yaqinlari ,o’z tug’ilgan tuprog’ini va insoniyat taqdiri nima kechishi haqida o’yladi, mana shu ma’rifat emasmi!? Yoki bo’lmasa adashib yomon yo’lga kirib keyin qo’lga tushganlarni biz nima qilyapmiz o’ldiryapmizmi? Yo’q aksincha ularga buni noto’g’ri qaror ekanligini ko’rsatib yana bir imkon beryapmiz.

Bu shunchaki tarixdan misol edi. Aslida jaholatga qarshi kurash u paydo bo’lmasdan avval boshlanadi ya’ni kasal paydo bo’lishidan oldin unga qarshi immunitet hosil qilgan kabi.

O’ylab ko’ring! Agar barcha urushlarni boshlagan insonlar urush nimaligi va inson qadr-qimmati yuksakligini bilganda urush boshlasharmidi? Islom so’zini ma’nosini bilgan inson uni niqob qilib razil ishlar qilarmidi? Inson qadr-qimmatini biladigan inson insonlarni qul qilib sotadimi? Vatan tuyg’usini sezgan odam vatanini sotadimi? Onasi va ayolini hurmat qilgan inson ayollarni xo’rlaydimi?

Ushbu savollarni berar ekanman birinchi prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asaridagi bir ibratli so’zlar yodimga tushdi: “Bu dunyoda



tabiatda ham,jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qayerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to'ldirishga harakat qiladi." Bu yerda bizda har doimgidek ikkita yo'l bor: Hozirdan ushbu bo'shliqni kerakli bilimlar bilan to'ldirib ota-on, yaqinlar, do'stlar hamda vataning faxrlanadigan kerakli kadr bo'lish yoki bu bo'shliqni shunchaki bo'sh qoldirib(to u be'mani narsalarga to'lib) hayotingizni do'zaxga aylantirguncha kutish! Barchasi o'z qo'limizda! Zero:Illat izlaganga illatdir dunyo, hikmat izlaganga himatdir dunyo deya bekorga ta'kidlashmagan.

Insoniyat paydo bo'libdiki ne-ne jaholatlarga qarshi kurashib keladi. Bugun ham u shunday jaholat qarshisida turibdi. Uning nomi COVID-19. Ha u ham jaholatni bir ko'rinishi. Nimaga desangiz uning urushdan kam joyi yo'q. Bunga misol qanchadan-qancha insonlarni nobudbo'layotgani bo'lsa yana bir misol shu vaqtgacha olimpiya o'yinlar 1916, 1940, 1944 yillar qoldirilgan,ko'rinish turibdiki bu urush yillariga to'gri kelgan. Endi bu sanalar qatoriga 2020 yilni qo'shilishi esa bu pandemiyani urushdan fargi yo'q ekanligini ko'rsatadi. Xo'sh bu jaholatni qanday yengamiz? Albatta yana va yana ma'rifat bilan degim keladi. Ya'ni xalqlarning kuchli mentaliteti, qat'iy intizomi va birlashuvni.

Bunga birgina Xitoy xalqi ma'rifatini misol qilish mumkin!

Yaqinda Xitoya paydo bo'lgan bu jaholat urug'i Xitoy xalqidan chekinishni boshladidi. Ular buni qanday qildi deysizmi? Xitoyliklar avvalo ma'rifatli xalq. Ularga uylarida o'tirish buyurildimi ular uylaridan jilmadilar. Ularda qat'iy tartib o'rnatildi va unga hamma rioya qila boshladidi. "Quchoqlashishlar" o'rnnini ta'zim egalladi. Albatta bunday sharoitda bir yarim milliardlik aholini oziq-ovqat ta'minlash qiyin edi lekin xalq buni tushundi va sarosimaga tushmay xarid madaniyatiga rioya qila boshladidi. Vahimalar bostirildi. Mamlakatda ta'lim yangi bosqichga ko'tarildi, ya'ni "masofaviy ta'lim" kuchaytirildi. Ta'lim olish uchun barcha sharoit yaratildi. Xitoyliklar qoidalarga rioya qilib, birvarakayiga niqob taqdilar. Natijada o'limlar va kasallanishlar soni sutkasiga ikki mingdan, 2-3 taga tushdi. Ajoyib iroda to'g'rimi? Mana buni **Jaholat qarshi ma'rifat** desang bo'ladi!

Bilamiz Jaholatni sababchisi johillar hisoblanadi. Afsuski hozirgi Jaholat davrida ham shunday johillar borligi tabiiy va achinarli, albatta. Xo'sh ular kimlar?

O'zini oilasini va vatanini xavfga qo'yib ko'chada maqsadsiz yurganlar johillar emasmi?! Niqob taqmay "virus tashuvchi" bo'lib yurganlarchi?! Xalqni vahimaga solmoqchi bo'lganlarchi?! yoki bo'limasa taqiqlarga qaramay o'z "ishi"ni qilib yurganlarchi?! Ular ham johillar emasmi?! Uyda bo'sh vaqt bo'la turib o'qimay faqat be'mani narsalar ko'rayotganlarchi?! Ular ham johillar emasmi?!

Ammo o'g'ir vaziyat bo'lishiga qaramay o'z yordamini ayamayotgan ma'rifatli insonlarimizni ko'pligi, yaqin orada bu jaholat bizdan chekinishidan dalolat berib turibdi. Bunga xalqimizni o'zi guvoh bo'lyapti. Ko'rib turibmizki bir qancha mamlakatlarda ularni bu jaholatdan qutqargan omil mamlakat aholisining ma'rifati ya'ni qonunlarga itoatkorligi, o'zaro tushunish, o'zaro hurmat ekanligini e'tirof etish zarur. Demak hozirgi sharoitda el-ulus millat o'laroq birlashadigan, bir tanu bir jon bo'lib harakat qiladigan vaqt keldi. Bunday kezlarda ma'rifatli millat bu jaholat va inqirozdan kuchli va baquvvat bo'lib chiqadi. Ana shunday ellar qatorida O'zbekning ham bo'lishi Siz-u bizga bog'liq.

Demak yo'limiz bitta: Jaholatni faqat ma'rifat bilan yengamizi!

So'zimni buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyni so'zлari bilan yakunlamoqchiman :

"Alhosil, jaholat insoniyat nomina yarashmagan bir sifat o'ldig'indan bahamhol ilm yo'lida harakt qilmak, aqli salim sohiblarining hikmatli so'zlaridan hissalanmak, aziz jonimizdan azizroq avlodlarimizni jaholat va nodonlik balolaridan qutqarmak uchun jonimiz boricha, kuchimiz yetkuncha cholishmoqimiz lozim va lobuddur."

(Turkiy guliston yohud axloq asaridan)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asari. "Yoshlar" Toshkent 2018y.
2. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari. "Ma'naviyat". Toshkent 2013y.
3. M.Yo'ldosheva "Axborotlashgan jamiyatda ma'naviyat xavfsizlik masalalari". "Ma'naviyat" . Toshkent 2019y.



СИЁСИЙ – ПАРТИЯВИЙ ТИЗИМЛАР ТРАНСФОРМАЦИЯСИ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Нурмухаммад Қаршиев,
Ўзбекистон Миллий университети
Фуқаролик жамияти ва хуқук
таълими кафедраси таянч докторанти.
E-mail:nurmuxammad.qarshiev@bk.ru
тел: 90 975 90 70

Аннотация: Сиёсий – партиявий тизимлар трансформацияси замонавий сиёсий фанларда кўплаб олимлар томонидан ўрганилган. Сиёсий - партиявий тизимларнинг ўзгариш хусусиятларини таҳлил қилиш ҳамда партиявий тизимларнинг ривожланиши учун хulosалар бериш долзарб ҳисобланади. Партиявий тизимлар ривожланиши баробарида ўзгаришларга юз тутиши билан характерланади. Сиёсий – партиявий тизимлар трансформациясини назарий жиҳатдан илғор хорижий тажрибалар асосида ўрганишимиз мамлакатимизда юритилаётган сиёсий фанларнинг ривожланишига ҳисса кўшган бўламиз.

Калит сўзлар: партия, партиявий тизим, сиёсий тизим, трансформация, демократия, жамият, кўппартиявийлик.

Мамлакатимизда мустақилликка эришганимиздан сўнг, инқироз ёқасига келиб қолган тоталитар тартиботга таълуқли бўлган бир партиявий тизимга барҳам берилиб, демократияга асосланган кўппартиявийлик тизимиға ўтилди. Аммо, шуни ҳам таъкидлаб ўтишимиз керакки, сиёсий тизим ҳамда партиявий тизимнинг ўзгариши жараёни мураккаб ҳисобланиб том маънода янги тизим ишлаши учун вақт талаб қилинар эди. Бугунги кунда мамлакатимизда кўппартиявийлик тизими асосида сиёсий партияларнинг фаолият юритишлари учун барча шарт-шароитлар яратилган. Давлат бошқарувида партияларнинг иштирокини таъминлаш уларнинг фаолияти Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ифодаланган, унинг 60-моддасига кўра: “Сиёсий партиялар турли табақа ва гурухларнинг сиёсий иродасини ифодалайдилар ва ўзларининг демократик йўл билан сайлаб қўйиладиган вакиллари орқали давлат ҳокимиятини тузишда иштирок этадилар. Сиёсий партиялар ўз фаолиятларини молиявий таъминлаш манбалари ҳакида Олий Мажлиста ёки у вакил қилган органга белгиланган тартибда ошкора ҳисботовлар бериб турадилар”[1].

Замонавий сиёсий фанларда сиёсий тизим ва партиявий тизим масалалари кўп ўрганилган ва кенг ёритилган.

Сиёсий тизим, тартибот тушунчаси пайдо бўлибдики, жамиятда фуқароларнинг ҳаёт фаравонлиги, шахснинг эркинлиги, инсон хуқуqlари масалалари айнан унга боғлиқ бўлиб колмоқда. Сиёсий тизимнинг адолат асосига қурилганлигини, фуқароларнинг бошқарувда қайсиdir шаклда иштироки, мисол учун сайловлар, референдумлар ҳамда шахснинг эркинлиги, хуқуqlарининг химояланганлиги, хусусий мулкининг дахлсизлиги ва бошқа кўплаб омиллар билан белгиланади. Жамиятда фуқароларнинг сиёсий хуқуларини таъминлашда ҳамда уларнинг манфаатларини ифодалашда бевосита иштирок этадиган сиёсий кўприк партиялар ҳисобланади. Бир ёки бир нечта партиянинг мавжуд бўлиши ҳамда фаолият юритиши партиявий тизимни ташкил этади. Партиявий тизимнинг туркумланиши яъни, жамиятда бир партияли ёки кўппартияли тизимнинг фаолият юритиши айнан мамлакатнинг сиёсий тартиботига чамбарчас боғлиқdir.

Сиёсий – партиявий тизимлар трансформациясини кўплаб сиёсатшунос олимлар Р. Инглхарт, А. Ариана, М. Шамир, П.Мейр, К.Жанда, Р.Хармел, С. Липсет, С. Роккан, Л.Н Алисова, А.И. Сольвьёв, А.Б. Пономаренко ва бошқалар ўрганишган.

Партия тизимларининг барқарорлиги муаммоси биринчи бўлиб 60-йилларнинг охирида партологларнинг тадқиқот марказида пайдо бўлди. Хусусан, С. Липсет ва С. Роккан класик ишларида Фарбий Европада “партия тизимларини музлатиш” ғоясини ифода этган[2].

С. Липсет ва С. Рокканнинг Фарбий Европадаги “партия тизимларининг музлаши” ҳақидаги гипотезаси академик муҳитда катта резонанс туғдирди; тадқиқотчилар унинг изчилигини синай бошладилар ва янги қиёсий тадқиқотлар давомида бир-бирига мутлақо зид хulosалар чиқарилди - Фарбий Европа мамлакатларининг партия тизимлари XX-



асрнинг сўнгги ўн йилларидаги кучайган муҳим ўзгаришлар билан ажралиб туради.

Замонавий адабиётларда партия тизимини аниқлашда иккита асосий ёндашув мавжуд. Бир қатор муаллифлар партияйи тизимни нафақат партиялар ўртасидаги муносабатлар, балки партияларнинг давлат ва мамлакатнинг бошқа сиёсий институтларидан билан алоқаси сифатида ҳам белгилайдилар. Масалан, Л.Н. Алисова партияйи тизимни “давлат ва бошқа ҳокимият институтлари, табиати, фаолият шартлари, сиёсий маданиятнинг асосий қадриятларига қараашлари билан ўзаро барқарор алоқалари ва муносабатлари билан ҳар хил турдаги сиёсий партиялар тўпламидан иборат сиёсий тузилма” деб таърифлайди[4]. Партияйи тизимга бундай мураккаб таърифларнинг берилишини унинг ўзгариши ва ривожланиши ҳисобга олинганлиги билан боғлаш мумкин.

А.И.Соловьёв бу турга яна бир таъриф беради унга кўра, партияйи тизим - бу ҳар хил турдаги партияларнинг бир-бири билан шунингдек, давлат ва бошқа ҳокимият институтлари билан барқарор алоқалари ва муносабатларининг тўпламидир [5] деган фикрни илгари суради. Юқоридаги ҳар иккала ҳолатда ҳам сиёсий партияларнинг ўзаро ҳамда бошқа сиёсий институтлар билан алоқаларига, боғлиқлигига урғу берилган.

Фарб сиёсатшунослигига “партия тизимининг ўзгариши” тушунчасини аниқлашга учта асосий ёндошувни ажратиш одат тусига кирган. Биринчи ёндошув партия тизимларининг классик миқдорий типологияларига асосланганлиги. Ушбу ёндошувга кўра, партия тизимидағи ўзгариш бу тизимнинг бир туридан иккинчисига ўтишидир. Хусусан, партия тизимидағи ўзгариш икки партияли тизимдан чекланган плюрализм тизимига ўтиш деб ҳисобланади. Ушбу ёндошувга А. Ариана, М. Шамир каби тадқиқчилар қаттиқ риоя қилишган[6].

Иккинчи ёндошув вакиллари партия тизимидағи ўзгаришни унинг асосий ўлчовлари динамикаси сифатида белгилайдилар. Ушбу ёндошув вакиллари партия тизимидағи ўзгаришларни бир ёки бир нечта ўлчовларнинг ўзгариши сифатида изохлайдилар[8].

Учинчи ёндошувга кўра, партиялар тизимидағи ўзгариш партиялар ўртасидаги ўзаро таъсир ва рақобат моделларида ўзига хос янгиликдир. М. Педерсен таъкидлаганидек, партия тизимидағи ўзгаришларни тавсифлаш учун парламент ва ҳукумат, партия ташкилоти ва электоратнинг ишлаш даражасини кўриб чиқиш зарурдир. Бинобарин, партия тизимидағи ўзгариш бу учта даражадаги ва улар ўртасидаги ўзаро таъсир ва рақобат шаклларининг ўзгаришларни қамраб олувчи комплексидир[3].

Партияйи тизимлар трансформацияси сиёсий тартибот хусусиятлари ёки унинг ўзгариши билан чамбарчас боғлиқ ҳисобланади.

1970-1980 йилларда Фарбий Европанинг партия тизимларини қамраб олган умумий ривожланиш тенденцияси илмий адабиётларда “партия тизимидағи ўзгаришлар” (party system change) тушунчаси билан белгилана бошлади. Ўзгаришларнинг асосий сабабларидан бири эски ижтимоий бўлинишларнинг заифлашиши эди. Р. Инглхарт пост-материалистик характерли муаммолар билан янги сиёсий ўлчовни вужудга келтирсанлигини таъкидлади, у ўнг ва чап ўртасидаги анъанавий иккиламчилик доирасидан фарқ қиласи.

Турли хил инсон ҳуқуклари, экологик, феминистик, пасифистик характерлар ижтимоий аҳамиятга молик мавзуларни баён қилишда анъанавий партиялар билан рақобатлаша бошладилар, бу сайловлар хулқ-авторига таъсир қилди ва натижада Фарб мамлакатларидаги партия тизимларини ўзгартириди[7].

Кейинчалик, партиялар тизимидағи ўзгаришлар назарияси партологиянинг асосий тадқиқот йўналишларидан бирига айланганига қарамай, замонавий сиёсатшуносликда ҳали ҳам партия тизимидағи ўзгариш деб қараладиган келишув мавжуд эмас эди. П. Мейрга кўра, “партия тизимларининг ўзгариши - бу ҳодиса, тадқиқчилар буни исботлаш учун кўплаб далилларни келтирдилар аммо, камдан-кам ҳолларда партия тизимидағи ўзгаришга аниқ таъриф берилган”[9].

Шундай қилиб, Фарбий инглиз тилидаги нутқда партия тизимидағи тебранишларни ёки унинг динамик ўлчовини кўрсатиш учун transformation (трансформация), shift (силжиш), alteration (ўзгариш) каби атамалардан кенг фойдаланилади. Улар party system change (партиялар тизимини ўзгариши), transformation of party system (партия тизимининг трансформацияси), party change (партия ўзгариши), electoral shift (сайлов силжиши) каби мураккаб тушунчаларни шакллантиради. Агар Фарб сиёсатшунослигига transformation of party (партияйи тизим трансформацияси) ва party system change (партияйи тизим ўзгариши)



тушунчалари синоним сифатида ишлатилган бўлса, унда party change (партия ўзгариши) каби тушунча бутунлай бошқача ҳодисани билдиришга қаратилган.

Хусусан, ушбу тушунчаларни бир-биридан фарқлаш зарурлигини П.Мейр, К.Жанда, Р.Ҳармел ва бошкалар каби тадқиқотчилар таъкидладилар[9]. Фарб сиёсатшунослигида иккита алоҳида тадқиқот йўналишлари вужудга келганига эътибор беринг- партиянинг ўзгариш назарияси (theory of party change) ва партия тизимининг ўзгариши назарияси(theory of party system change). Сиёсатшуносликда «трансформация» атамаси кўпинча илмий тушунча сифатида ишлатилади.

Сиёсий тизими демократия асосига қурилган жамиятларда асосан кўппартиявилик тизими ҳамда айrim ҳолларда икки ярим партиявилик тизимлари амалда бўлади. Тоталитар ёки авторитар сиёсий тизимлар асосига қурилган жамиятларда кўпроқ бир партиявилик ёки икки партиявилик тизимлар амалда бўлади. Бундай жамиятларда сиёсий тизим ягона партия зиммасига бутун сиёсий жараёнларни амалга оширишни юклайди ҳамда давлатнинг айrim функцияларини сиёсий партиялар амалга оширади. Бир партиявилик тизим жамиятни тўлиқ қамраб олишга ҳаракат қиласи шу нуқтаи назардан партия дастури жуда кенг қамровли қилиб ишлаб чиқилади. Бир партиявилик тизими жамиятни яхлитлигини таъминлаб, унинг бўлинишини гурухларга, қатламларга ажralишига қарши позицияда бўлади. Бир партияли тизимда ягона партия ичida қарама-қаршиликларнинг турли мафкуравий ёндошувларнинг вужудга кела бошлиши унинг ўзгариши трансформациялашуви жараёнига томон ташланадиган илк қадамлари ҳисобланади. Бир партиявилик тизимининг соғлом сиёсий мухитдаги фаолияти кийинчалик иккипартиявилик ҳамда кўппартиявилик тизимида ўзгариши билан характерланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. “Ўзбекистон” НМИУ.2018, 72 б.
2. Липсет С., Роккан С. Структуры размежеваний, партийные системы предпочтения избирателей. // Партии и выборы: Хрестоматия / Ред. и сост. Анохина Н.В., Мелешкина Е.Ю. Ч.1. М.: ИНИОН, 2004. С. 54-68.
3. Педерсен М. Электоральная неустойчивость в Западной Европе, 1948-1977. // Партии и выборы: Хрестоматия / Ред. и сост. Анохина Н.В. , Мелешкина Е.Ю. Ч.1. М.: ИНИОН, 2004. С.93-103.
4. Пономаренко А. Б., Специфика трансформации партийной системы современной России. Статья. Вестник Башкирского университета. 2011. Т. 16. №2
5. Соловьев А. И. Политология: Политическая теория, политические технологии. М.: Аспект Пресс, 2001. 559 с.
6. Arian A., Shamir M. Candidates, parties and blocs: Israel in the 1990s. // Party Politics. 2001. Vol. 7. No. 6. P. 705.
7. Inglehart R., Flanagan S.C. Value Change in Industrial Societies // The American Political Science Review. 1987. Vol. 81. No. 4. P. 1296-1298.
8. Lane J.-E., Pennings P. Comparing Party System Change. N.Y.: Routledge, 1998. P. 5-6.
9. Mair P. Party System Change: Approaches and Interpretations. Oxford: Oxford University Press, 1997. P. 48.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(2-қисм)

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000